

MOLIYA SEKTORINI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH-DAGI ROLINI OSHIRISHNING DOLZARB MUMMOLARI

Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi

“INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE

TECHNOLOGY AND SCIENCE “ instituti o’qituvchisi

Ilg’or xorij tajribasi ko’rsatadiki, moliya sektorini rivojlan-tirish iqtisodiyotning real sektorini barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash, inflyatsiyaga qarshi kurashish, davlat byudjetining mutanosibligini ta’minlash iqtisodiyotning real sektori korxonalari faoliya-tini rivojlantirishda muhim o’rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida 2023yilda inflyatsiyaning yillik darajasini 5 foizdan oshmasligini ta’minlash, davlatbyudjeti defitsitining nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmaydigan darajasiga erishish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish, iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning zaruriy shart-lari sifatida e’tirof etilgan³⁶. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning moliya sektorini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotning moliya sektorini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish masalasi taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan va muhim ilmiy natijalarga erishilgan.

M.Fridmenning ilmiy xulosasiga ko‘ra, pul massasining yillik 3-5 foiz darajasida o‘shishi iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Pul taklifining o‘shishi yiliga 3-5 foizdan yuqori bo‘lsa, unda inflyatsiya o‘sa boshlaydi, agar, iqtisodiyotda pul taklifining o‘shishi 3-5 foizdan kam bo‘lsa, yalpi milliy mahsulotning o‘shish sur‘ati pasaya boshlaydi³⁷.

J.Keyns tomonidantaklif etilgan pul-kredit siyosatining uzatish mexanizmiga ko‘ra, pullar taklifining o‘shishi natijasida foiz stavkasining pasayishi investitsiyalarning muqobil qiymatini pasaytiradi. Ayni vaqtda, foiz me‘yorining pasayib borishi bilan firma va kompaniyalar o‘zlarining rejali investitsiyalari hajmini oshiradilar. Bu xarajatlar rejali xarajatlarning umumiy summasi bilan qo‘shilib, tovar zaxiralarning ko‘zda tutilmagan miqdorda sarflanishiga olib keladi. Firma va kompaniyalaresa, bunday sharoitda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytiradilar. Bu esa, o‘z navbatida, milliy daromadning ko‘payishiga olib keladi³⁸.

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегияси тўғрисида//www.lex.uz..

³⁷ФридменМ. Если бы заговорили деньги. Пер. с англ.-М.:ИНФРА-М, 2001.-С.63.

³⁸ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. –М.: Гелиос АРВ, 1999. -352 с.

J.Tobin aytadiki, kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi. Riskli aktivlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida kompaniyalar va banklarning pul mablag'lari portfel ko'rinishida taqsimlanadi³⁹.

G.Xess va Ch.Morrislarning fikriga ko'ra, baholarning sezilarsiz darajadagi o'sishi ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning fikriga ko'ra, baholarning unchalik sezilarli darajada bo'lmagan o'sishi ham inflyatsiya dinamikasidagi noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlari foiz stavkasining o'sishiga olib keladi. Chunki kreditlarning foiz stavkasi o'zida nafaqat kutilayotgan inflyatsiyani, balki risk uchun qo'shimcha ustamani ham aks ettiradi. Natijada, mamlakatdagi iqtisodiy faollikka va aholining turmush darajasiga nisbatan kuchli salbiy ta'sir yuzaga keladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida moliya sektorini iqtisodiyotni rivojlantiridagi rolini oshirish bilan bog'liq bo'lgan qator dolzarb muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligidir. O'z navbatida, tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi inflyatsiya darajasini va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun ekspansionistik monetar siyosatni J.M.Keyns tomonidan Ikkinchi jahon urushidan keyin taklif etilgan umumiy talabni rag'batlantirishga qaratilgan byudjet siyosati bilan uyg'unlashtirgan tarzda olib borish lozim. Ekspansionistik monetar siyosat tijorat banklarining kredit ekspansiyasini rag'batlantiradi va kreditlarning nominal yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa, pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash imkonini bergan holda, iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirish uchun birinchidan, Markaziy bank majburiy zaxira talabnomasi summasini tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobraqamlarida qoldirish yo'li bilan banklarning kreditlashimkoniyatini va likvidligini oshirish lozim; ikkinchidan, Markaziy bankning diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini yo'lga qo'yish bilan tijorat banklariga beriladigan qayta moliyalash kreditlari hajmini oshirish zarur; uchinchidan, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan tijorat banklari va kompaniyalarning depozit sertifikatlari va obligatsiyalarini Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarining ob'ektlariga aylantirgan holda, to'g'ri REPO va teskari REPO operatsiyalarining hajmini oshirish kerak; to'rtinchidan, milliy ssuda kapitallari bozorini shakllantirish asnosida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kreditlari bozor bahosining past va barqaror darajasini ta'minlashga erishish. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan umumiy talabni rag'batlantirishga qaratilgan byudjet

³⁹ Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. –М.: Либроком, 2010. –С. 111-112

siyosatiningamalga oshirilishi nominal foiz stavkasining pasayishiga olib keladi, monetizatsiya koeffitsienti darajasini oshirish imkonini beradi, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirishga zamin yaratadi.3. Mamlakat tashqi savdo balansining defitsitigabarham berish maqsadida, birinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyati bo'lgan tovarlarni import qilishga nisbatan vaqtinchalik tarifsiz cheklov joriy qilish kerak; ikkinchidan, Yevropa davlatlarining O'zbekiston eksporti va importidagi ulushini oshirish hisobiga Rossiyaningrespublikamiz rezidentlarining tashqi savdo faoliyatiga salohiyatiga nisbatan yuzaga kelgan salbiy ta'siriga barham berish kerak; uchinchidan, milliy valyutaning O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlarning (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya) milliy valyutalariga nisbatan real almashuv kursining oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik orqali ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish lozim; to'rtinchidan, tovarlareksport qilinayotgan mamlakatlarning boj solig'i stavkalarini pasaytirish bo'yicha muzokaralar olib borish kerak.

2020-2022 yillar davomida bir necha marta milliy valyuta –so'mning O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlarning milliy valyutalariga nisbatan real almashuv kursining oshib ketishi kuzatildi. Masalan, so'mning real samarali almashuv kursi 2022 yilning iyul oyida iyun oyiga nisbatan 2,1 foizga oshgan bo'lsa, shu yilning avgust oyida iyul oyiga nisbatan 1,4 foizga oshdi.

Bangladesh tajribasi ko'rsatadiki, korxonalarining eksport tushumi miqdori va barqarorligiga mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning boj solig'i stavkalari darajasi bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bangladeshdan eksport qilinayotgan tovarlar uchun AQShda boj solig'i stavkalari juda yuqori bo'lib, darajasiga ko'ra to'rtinchi o'rinni egallaydi. 2006 yilda Bangladeshning AQShga eksporti hajmi 3,3 mlrd. dollarni tashkil qilgani holda, to'langan boj solig'i summasi 500 ming AQSh dollarini tashkil etdi. Holbuki, Buyuk Britaniya ham shuncha boj solig'i to'ladi, ammo uning AQShga eksporti hajmi 54 mlrd. dollarni tashkil etgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6
2. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.
3. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.
4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92.
5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014